Paxta yetishtirishni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish

Magistr Ko‘chiyev Azamat To‘lqin o‘g‘li

Ilmiy rahbar t.f.f.d.dots. Saidova Muhayyoxon Tulkinovna

Toshkent davlat texnika universiteti, Mexanika muhandisligi fakulteti, Yer usti transport tizimlari kafedrasi

Paxta dunyodagi eng muhim texnik ekinlardan biri bo‘lib, iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega. Paxta o‘sishi va hosildorligiga eng katta ta’sir qiluvchi omillar paxtani ekish va sug‘orish texnologiyasidir [1]. Ekish va sug‘orish tizimini to‘g‘ri tanlash suv tejamkorligi, hosil sifati va tuproq unumdorligiga bevosita ta’sir qiladi. Bugungi kunda paxtani tomchilatib sug‘orish tizimi yordamida yetishtirish, paxta xom ashyosini ishlab chiqarishni ko‘paytirish va global iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish uchun qo‘yilayotgan talablariga aynan mos keladi. Bunda chigitning unib chiqishi tezlashadi, tuproq namligi saqlanadi va suv sarfi kamayadi, meniral o‘g‘itlar va kimyoviy moddalarni tomchilatib sug‘orish tizimi orqali berish va shu yo‘l bilan yonilg‘i-moylash mahsulotlari sarfini kamaytirish imkoni tug‘iladi, paxtaning pishib yetilish jarayoni tezlashib, vegetatsiya davri qisqaradi, hosilni ochiq maydonga ekishga nisbatan ertaroq yig‘ib olish mumkin bo‘ladi, paxta hosildorligi sezilarli darajada ortadi.

Chigitni tomchilatib sug‘orish tizimi bilan, plyonka ostida qo‘shqator usulda aniq donalab ekish va yetishtirish — suvni tejovchi va mehanizatsiyalashgan paxtachilik texnologiyasi bo‘lib, so‘nggi yillarda keng joriy etilayotgan texnologiyalardan biridir. Ushbu yondashuvda urug‘ aniq dozada (donalab) ko‘p funksiyali seyalka orqali ikki qator (qo‘shqator) tarzida ekiladi, qatorlar orasida tomchilatib sug‘orish liniyalari (drip-line) o‘tkaziladi va yer usti plyonka (mulch/film) bilan yopiladi — natijada sug‘orish samaradorligi va urug‘lik sarfi kamayadi, mehnat va mexanizatsiya imkoniyatlari oshadi.

Chigit ekishda yuqori hosil olishni yangi samarador usullarni keng joriy qilish yo‘nalishida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Shunday samarali texnologiyalardan biri – bu paxtani tomchilatib sug‘orish tizimi bilan uyg‘unlashgan holda plyonka ostida yetishtirishdir. Texnologiyaning asosini yer maydoniga joylashtiriladigan nihollar sonini bir gektar maydonga 120-130 ming o‘rniga 240 ming tupgacha ko‘paytirib, ularni yetarli darajada ozuqa bilan ta’minlash va shu bilan birga xarajatlarni kamaytirib, olinadigan hosil miqdorini keskin oshirish maqsadi tashkil etadi.

Paxtaning pishib yetilish davri qisqarganda, ular bir tekis pishib yetiladi, bu esa oliy va birinchi navli yuqori sifatli paxta xom ashyosini olish imkonini beradi. Bir gektarga 240 ming tupgacha chigit ekilganda o‘rtacha hosil 50-60 s/ga va undan yuqori bo‘ladi. Qulay ob-havo sharoitida va texnologiyani ilmiy asosda to‘g‘ri qo‘llash yaxshi natijalarni kafolatlaydi va bunday hollarda gektaridan 80 sentnergacha hosil yetishtirilishiga erishiladi.

Chigit ekish va g‘o‘za qator oralariga ishlov berish texnikalarining asosiy (70-80 %) qismi 90 sm kenglikda olinadigan qator oralarida ishlashga mo‘ljallangan.

Lekin bu sxemada chigit ekilganda ko‘chat soni gektariga 120-130 ming tup bo‘ladi va shu sababli yuqori hosil olish imkoniyati cheklangan. Bu holda maydon birligiga ko‘chatlar sonini oshirishning samarali yo‘llaridan biri – chigitni qo‘shqator usulda ekishdir (1-rasm).



1-rasm. Kombinatsiyalashgan seyalka

Ba’zi hududlarimizda qo‘llanib kelinayotgan 60+30 sm lik qo‘shqator ekish sxemasida ham har gektar maydonda 220-240 ming tup ko‘chat sonini ta’minlash mumkin va shuning hisobiga yuqori hosildorlikka erishilmoqda. Lekin g‘o‘zaning juft qatorlari orasidagi masofa 30 sm kenglikda bo‘lganligi uchun paxta terish mashinalari ushbu sxemada ekilgan paxtani tera olmaydi. Natijada paxta terimi ishlarida faqat qo‘l mehnatidan foydalanishga majbur bo‘linmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, texnika vositalari 90 sm li tizimga moslashgan xo‘jaliklar ekin maydonida ko‘chat sonini oshirish maqsadida kam xarajatlar hisobiga 76+14 sm li qo‘shqator sxemaga o‘tishlari mumkin[2].

76+14 sm qo‘shqator sxemada paxta yetishtirishning afzalliklari eng avvalo ko‘chat sonining ko‘pligi hisobiga hosilni keskin oshirishni ta’minlashdan iborat. Buning uchun xo‘jalikda mavjud texnika vositalariga kam xarajat evaziga kichik o‘zgartirishlar kiritib, ulardan samarali foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu qo‘llanmada keltirilgan tavsiyalarga amal qilinsa, yer maydoniga ko‘chatlar sonini 220-240 mingtagacha yetkazish mumkin va paxtadan 60-65 s/ga hosil yetishtirishga ishonchli zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Karaxanov, F. A. Alimova, M. T. Saidova. Research of the rowsowing process of the cultivated crop seeds sowing by means of a pneumatic planter. Technical science and innovation. – Tashkent, 2020. – № 4. – PP.213–217.
2. Чигитни томчилатиб суғориш тизими билан пленка остига қўшқатор усулда аниқ экадиган комбинациялашган сеялкадан фойдаланиш бўйича тавсиялар. Toshkent vil. Yangiyo’l tum. Gulbahor. 2025.